



"ISYON VA ITOAT" ROMANIDA OBRAZ VA G'OYA UYG'UNLIGI

Abdullayev Xamro Dauletbaevich

filologiya fanlar nomzodi, dotsent

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbekiston, Nukus shahri*

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romani tahlilga tortilgan. Maqolada badiiy kompozitsiya elementlarining g'oyani yuzaga chiqaruvchi vazifalari, matnda g'oyaviy kommunikatsiyani amalga oshirgan nutq vositalarining badiiy-estetik funksiyalari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: roman, obraz, g'oya, badiiy asar tili, muallif nutqi, personaj nutqi, diolog, monolog, xarakter, uslub.

Til xarakter, syujet, konflikt, kompozitsiya singari komponentlar bilan birgalikda badiiy asarning eng muhim xususiyatlari, shuningdek, V.G.Belinskiy aytganidek, ommaviylik va badiiylikni ro'yobga chiqaruvchi omildir. Shu ma'noda til badiiy ijodda universal vazifani bajaradi. Chunki, "realistik asarda voqealikni haqqoniy ko'rsatish uchun qahramonning tashqi qiyofasi bilan birga uning ichki dunyosini ham, murakkab his-tuyg'ularini ham, o'ziga xos fe'l-atvorini ham, xarakterini ham, yashash sharoyitini va holatini ham zarur tafsilotlar bilan tasvir etish kerak"[1.8].

Yana ta'kidlash kerakki, badiiy asar tili ko'p qirrali masala bo'lib, ijod jarayonining barcha sohasini qamrab oladi. Xusan, asar tilining badiiylik komponentlari orasidagi vazifasi, jonli va adabiy tillarga asoslanishi, turli xususiyatlari va vositalari uning serqirraligini tayin etadi. Taniqli olimlarimizdan I.Qodirovlarning bu masalani atroflicha tahlil etgan ishlari[2] badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari xususida bat afsil to'xtashimizga o'rinn qoldirmaydi.

Badiiy asar tilining ana shu xususiyatlarini hisobga olib, biz bu o'rinda masalani lingvistik tafakkurni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos vazifasini o'rganishga harakat qildik. Badiiy asar tilining bu xususiyatida, eng avvalo, muallif nutqi va pozitsiyasi, personaj nutqi yetakchilik qiladi. Shu xususiyatdan kelib chiqib, biz o'zbek romançiligining yutuqlaridan hisoblangan U.Hamdamning "Isyon va itoat" romani tahliliga to'xtaldik. "Isyon va itoat" romanidagi poetik nutq xususida fikr yuritilganda, Ulug'bek Hamdam badiiy tilni faqat shakl yaratish vositasi deb emas, balki unga shakl bilan mazmun birligini ta'minlovchi vosita sifatida yondashganini ko'ramiz.

Romanda muallif nutqi ulkan badiiy vazifani bajargan. Birinchi navbatda muallif nutqi axborot beruvchi xarakterida bo'lib, asar asosidagi g'oyani ochishga qaratilgan.





Yozuvchi roman markaziga serg‘ayrat va ishbilarmon, keskir va shiddatli, biroq xudbin xulq egasini qo'yari ekan, “hamma vaqt u bilan birga bo'ladi”, “harakatining... sabablarini tushuntirib..., jilovini tutib”[3.192] turadi.

“Isyon va itoat” ning til xususiyatlarda ekspressiv nutq qatlamlarining birikib, chatishib, o'rni almashib kelishida muallif nutqi boshqaruvchi, baholovchi, hukm chiqaruvchilik rolini o'ynamaydi. “Tug'ilmoqning, dunyoda yashamoqning ma'nisi shu go'zallikni his qilish, unga e'tibor ko'rsatishda ham emasmikan?...” – deya mulohaza yuritardi... Akbar yuz-ko'zlariga uchib kelib qo'nayotgan hamda zumda erib ketayotgan laylak qordan zavqlanib...

Nariroqda bir yigit sevgilisining belidan mahkam quchgancha yuzini qorga tutar, qiz esa jonsizgina harakatlar bilan chiqib ketishga yolg'onidakam urinar, laylak qor eriyotgan namxush yonoqlaridan, lablaridan qiqirlay-qiqirlay o'ptirardi. Akbar ularga bir muddat havas-la boqib qoldi. Miyasidan: “Tiriklikning eng nodir, eng yuksak pallasi quchog'ida erkalanayotganliklarini o'zları ham bilishsaydi”, - degan o'y kechdi...

Akbar xiyobonda yana ancha muddat kezindi. Xayoliga ustoz tushib, uni, suhbatlarini his qildi. Qishki ta'til vaqtida Farida bolalarini olib keladigan bo'lganiga ko'ra Akbarning o'zi hali-beri viloyatga yo'l oladiganga o'xshamasdi. Telefon ham bor-ku, lekin uning ustoziga aytmoqchi bo'lganlari maktubda yaxshiroq chiqardi, balki, Akbar daraxtlar ostida g'arch-g'urch qor bosib yurarkan, xayolan tabibga xat yoza boshladi: “Ustoz, sizni sog'indim... Shu choqqacha aytadigan gapim bo'limgani uchun jim yurgandim. Endi u borga o'xshaydi...

Ishq!..

Biroq men nima qilarimni bilmay qoldim...

Bilaman, muhimi, mening chorasizligim emas, balki ana shunga duch kelganim va hayotimga ma'ni kirganini butun borlig'im bilan his qilganimdir. Ha-ha, ustoz, men, nihoyat, tiriklikning – umarning mazmunini topgandekman! Mening istagim, orzuim ham shu emasmidi, aslida?,, garchi bu ishq menga iztirobdan bo'lak hech vaqo va'da etmayotgan esa-da, baxtliman! Chunki, ustoz, “Dunyoga nega keldim, har kun ertalab uyg'onmog'imning eng birinchi sababi nedir?” kabi doimiy savollarim meni ortiq qiyamay qo'ydi. Go'yo ular hech qachon bo'limgandek jimb ketishdi. Ustoz, siz nima deysiz? Duch kelganim aldamchi tasavvurlar, fitnakor saroqlar emasmi? Nega siz menga o'z hayot yo'lingizning miridan-sirigacha gapirib bergeningiz holda ishq





to'g'risida lom-lim demagansiz? Nega sizning menga aytib bergen barcha hikoyalaringizda bu narsa xuddi "Hayotning ma'nisi nimada?" degan savolning javobi singari hamisha ochiq qolib kelgan?" Yoki siz buni mendan yashirganmidingiz? Nima sababdan?.. Axir men qiynalib ketdim-ku!.. Garchand dunyodan ortiq mantiq va ma'no izlamayotgan bo'lsam-da, topganim barbibir ruhimga osoyishtalik baxsh etolgani yo'q yoki undan – ishqdan ham avlороq, undan ham tansiqroq yana nimadir bormiki, ko'ngil o'lgor baribir qoniqmayotir...

Nihoyat ishq! Faqat ugina endi menga nimalarnidir o'rgatmoqchi bo'lyapti, men ham uning qarshisida nafasim bo'g'zimga tiqilib hayajonlanyapman. Gapning sirasi, men uni hali tuzukroq bilmayman, biroq tiriklikning eng azim hikmati ishqda kab ituyulmoqda. Ishqilib, shunday bo'lsin, ishqilib, tag'in aldanmayin. Agar kutganim yana sarob bo'lib chiqsa, ko'tarolmayman. Gunoh – punohiga qaramay jonimga qasd qilaman qo'yaman. Holbuki, u o'z shirinligini allaqachon boy berib bo'lgan..."[5. 356-358]. Bu yerdagi muallif nutqida qahramonga tavsif berish orqali dialektik tahlilning kichik bir zarrasi namoyon etiladi. Ayni shunday o'rnlarda muallif nutqi bilan Akbar iztiroblari chatishib ketgan, polifonizm paydo bo'lgan. Ulug'bek Hamdam uslubiga xos jihatlardan biri shundan iboratki, bu ijodkor asarlarida nafaqat inson ruhiyatı, taqdiri, undagi chigalliklarni ifodalash uchun ramz va detallarga ko'p murojaat qiladi, balki ko'pincha butun bir asarni ramziylik asosiga quradi, mazmun va g'oyani detal zamiriga yuklaydi.

Insonning go'zalligi aynan yoshlik bilan vobasta. Chunki u paytda odam dunyoga ilk va samimiyligini nigoh tashlaydi. Agar yoshlikda tuyingan go'zallik xotirada saqlana olsa, odam hayotining keying davrlarida bo'lsa-da, u idrok etilishi muqarrar. Idrok va mushohada orqali e'tirof etilgan go'zallik esa haqiqatga aylanadi. Akbar Diana sababli turmushning siqiq muhitida qafaslangan ko'ngil qushini ilk bora parvozga shayladi. Aslida, bu his reallikda emas, uning ko'nglida edi, aynan ko'ngil tufayli uning hayotida yangi davr – tafakkur va mushohada ayyomi boshlandi.

Hayotning turli past-balndliliklari sabab ayol sevgisini emas, qo'nim topgan uyini, hurmat ko'rgan ishini va bolalarini tanladi. Akbar va Farida taqdir taqozosi bilan ayro yashay boshlashdi. Ularni sevishgan qalblar, deb aytib bo'lmasdi. Turmush qurishida ham Farida va uning ota-onasi tashabbus ko'rsatgan edi. Ayol sevardi. Muhabbat bir tomonlama edi. Lekin, shunday bo'lsada, Farida turmushidan nolimasdi. Akbar va Farida qonuniy er-xotin. Diana esa taqdir taqozosi bilan uchlikka kirib keladi.





Dianani uchlikka qonuniylashtiradigan bir omil borki, bu – muhabbat edi. Akbar bilan Diana bir-birini sevadi, ya’ni bu yerda sevgi ikki tomonlama. Anglashiladiki, Akbar Faridaga qonuniy tomondan bog‘lansa, Dianaga muhabbat bilan bog‘lanadi:

“Akbarning tizzalari qaltirab, yuraklari muzlab ketdi. “Endi nima bo’ladi?” – bu savol keyingi vaqlarda miyasinigina emas, butun vujudini, hayotini parmalab tashlagandi. Kuchdan qolayotganini, bu ketishda bora-bora adoyi tamom bo’lishini ich-ichidan sezib turardi. Yana shuni his qilib borardiki, endi uning chinakamiga baxtli bo’lishi Dianaga, u bilan bog‘liq munosabatga bog‘liqdek tuyulardi. Ilgari hech tashrif buyurmagan sezim! Nahotki shunday bo’lsa: insonning saodati boshqa birovga, uning senga bo’lgan tuyg‘ulariga qarab qolgan esa?... Biroq Akbar o’zini aynan shunday his etayotgandi. Uning ko’ngli faqat Dianani der, unga talpinar, faqat Diana huzuridagina o’zini mas’ud his qilar hamda boshqa hech bir narsaga ehtiyoj tuymas edi”[5. 351].

Romanni o’qish jarayonida shunga amin bo’lish mumkinki, Akbar mashaqqati ham qalb bilan bog‘liq, zavqi ham ruhoni, kamoloti ham ko’ngilda sodir bo’ladi.

“To’g‘ri, avvallari u ham Akbarni kelishgan, judayam kelishgan erkak bo’lgani uchun yaxshi ko’raman va bu his xuddi o’smirlik vaqtimda ko’p bor bo’lganidek ko’z ochib yumguncha o’tib ketadi, degan xayollarga borib yurdi. Mana, oradan oy emas, yil emas, butun boshli o’n yil o’tib ketyaptiki, Akbardan farq qilib, Diana qalbidagi ishq olovi kuchaygan bo’lsa kuchaydiki, aslo pasaygan emas. Sababi Diana Akbardek har tomonlama kuchli bir shaxsning, mard bir erkakning dunyosga esh, unga qo’shilis-singib borayotganligida edi. Ha, Akbar faqat ko’zlarni qamashtirib, boshlarni aylantirib yuboradigan darajadagi raso qaddi-qomatidan-da go’zalroq, hassosroq, nazokatliroq chiqib qoldi. Birga bo’lishgani sayin Diana bu qalbga tobora chuqurroq kirib borar, o’zini unutar darajada huzurlanardi. Shunda ba’zan o’ylab qolardi: agar Akbar go’zal emas, o’rtacha, el qatori, hatto xunukkina erkak bo’lgandayam, bunday yuragi uchun uni devona bo’lib sevish mumkin! Axir Diana bu yillar davomida tushunib qolgandiki, Akbarning xush qaddiga ko’nikib bo’lgandi, bu qomat endi Diana uchun yangiliklar, kutilmagan sovg‘alar tayyorlay olmas, lekin yuragi... Akbarning yuragi o’z mo’jizalari bilan haligacha Dianani lol qoldiradi. Ha, bu yurak mo’jiza yaratishdan charchamasdi..”[5. 378].

U.Hamdam san’atkor sifatida xarakter yaratish, uning yetakchi xislatlarini ifodalashning asosiy vositasi tarzida dialogdan ham unumli foydalangan, dialoglarda ishlatilgan so’zlar, har bir jumlaga xilma-xil funksiyalar yuklash, adibning mohir so’z





ustasi ekanini yana bir marta tasdiqllovchi dalildir. Dialog haqida fikr yuritishda biz M. Baxtinning ilmiy xulosalariga tayanamiz[4]. Har bir yozuvchi o'z asariga dialog kiritar ekan, unga katta ma'suliyat yuklaydi.

U.Hamdam romanda dialogdan foydalanishda, faqat ko'nikilgan tasavvurlar va keng rasm bo'lgan normalar doirasidagina qolib ketgan emas. U ko'pincha dialogga yangi funksiyalar yuklaydi, uning yangi qirralarini ochadi, chinakam san'atkorga xos tarzda dialogni o'zining g'oyaviy-badiiy niyatlariga to'la xizmat qilishga majbur etadi. Jumladan, kitobxon fikr-o'yalarini chalg'itish orqali psixologik effektga erishish, sukut saqlash va so'roqlar orqali dramatik holatni kuchaytirish, fikrlar xilma-xilligini saqlash tufayli personajlar ruhiy olamini ochish, o'zgaruvchan pauzalarni qo'llash tasvir aniqligini ta'minlash imkonini beradi.

"Isyon va itoat" romanidagi Akbar va tabib obrazlari tasvirida, badiiy tasvir vositalarini qo'llashda ham muallifning yetuk mahoratidan dalolat beruvchi yorqin lavhalar anchagina. Keltirilgan iqtiboslar orqali biz dialogning personajlar psixologik portretini chizishda alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatishga urindik.

“- Men juda charchadim, ustoz.

- Lekin yo'lning adog'i ko'rinxmaydi-a?.. – shogirdining ko'ziga sinchikov qarab so'radi tabib.

- Ha... Lekin u yaqin, tobora yaqinlashib kelyapti. Shundan xursandman.

- O'limmi?.. Yanglishasan.

- Nega endi? Faqat o'limgina mening butun iztiroblarimga nuqta qo'yadi. Faqat uningga quchog'ida tasalli topaman...

- Qattiq xato qilasan, - yanada keskinroq jarangladi tabibning ovozi”[5. 385]

- Xo'sh, nega kerak bu nihoyaki, magar undan so'ng o'lim kelsa?

- O'lish uchun.

- Usiz o'lib bo'lmaydimi?

- Ha, o'lib bo'lmaydi. Tanang o'lishi mumkin, lekin qanoat topmagan ruhing taskin ilinjida iztirob chekishda davom etaveradi. Shuning uchun vaqt oz. U o'limgacha! O'limgacha bu dunyo bilan bog'liq ishlaringni hal etmog'ing shart, agar o'lib tasalli topmoqchi bo'lsang. Boshqa chora yo'q... - andak tin olib davom etdi tabib. – Hali yoshsan, ulgurasan...

- Ustoz, ulguradiganim o'sha narsaning nomi nima? Yakunning, o'sha muqaddas nihoyaning ismi qanday axir?.. – Akbarning ovozi yalingannamo eshitildi. Tabib javob





o'rniga jilmayib qo'ydi. Akbar esa qizishdi. – Nega indamaysiz? Nega har safar gap natijaga kelganda mum tishlaysiz, ustoz! Axir ko'rmayapsizmi...

- Ko'rib turibman, - shogirdi so'zini bo'ldi tabib, - ko'rib turibman holingni, o'g'lim. Biroq nachora?.. Natijaga har kim o'zi kelmog'i shart deya necha bor takrorlaganman. Birovning xulosasi o'zga birov uchun kutilgan, istalgan natija bo'lolmaydi. Agar shunday bo'lganda edi, bola hech qachon otaning izmidan chiqmasdi. Ota aytganday yashab o'tardi. Gap shundaki, inson hamma narsani o'zi, o'z borlig'i bilan tushunishi kerak. "Bu olov, u qo'lingni kuydiradi", - deganing bilan, bola qachondir o'tga qo'lini tiqib, kuydirib olmaguncha ko'ngli tinchimaydi. Yo'qsa, dunyodan qancha ulug'-ulug' allomalar o'tmagan deysan. Mana, sen adabiyot odamisan. Lekin o'z ishingni Navoiy bobo yetib kelgan joydan boshlamaysan-ku! Qaytaga Navoiy qayerdan boshlagan bo'lsa, sen ham, boshqalar ham o'sha yerdan – noldan boshlaysizlar! Lekin har kim o'z imkoniga qarab turli xil manzillarga keladi va har kimning yetib kelgan joyi o'zi uchun yakun bo'ladi, o'zi uchun aziz, muqaddas sanaladi. Shuning uchun ham birovnikи birovga tushunarsiz: goho balandparvoz, goho bundayroq tuyuladi. Chunki imkonlar, qarichlar har xil. Men senga: "Natija shudir" desam-u, vaqt kelib o'z natijangga kelganingda o'ylanib qolasan: ustoz bunday deganidi, holbuki, boshqacharoq ekan-ku deysan. Chalkashasan. Aslida, shunday bo'lishi tabiiy. Chunki biz bir-birimizga qanchalik o'xshamaylik, baribir, ikkita odammiz. Har birimiz o'zimizcha betakrormiz. Hayotimizda ham, xulosalarimizda ham. Mohiyatda esa natijalar bir xil bo'lishi mumkin. Ko'rindiki, biz bitta narsa haqida har xil ovozlarda – o'z ovozimizda gapiramiz" [5. 386-387].

O'zbek romanchiligi taraqqiyotida "Isyon va itoat" hayotni rivoyaviy bayon etishdan ko'ra ko'proq badiiy tadqiq etishi va vogelikni estetik tashkillashtirish prinsiplari nuqtai nazaridan dadil odimdir. Aynan shu jihatlari bilan u jahon romanchiligi taraqqiyoti darajasiga yaqinlashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. Toshkent, 1973.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 1980.
3. Gorkiy M. Adabiyot haqida. Toshkent, 1962.
4. Baxtin M.M. Problem poetiki dostoevskogo. – M.: Sov. Pisatel. 1963
5. U.Hamdam. Vatan haqida qo'shiq. Akademnashr.-Toshkent, 2014.

